

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI SOG‘LIQNI SAQLASH VAZIRLIGI
RESPUBLIKA O‘RTA TIBBIYOT VA FARMASEVTIKA XODIMLARI
MALAKASINI OSHIRISH VA ULARNI IXTISOSLASHTIRISH MARKAZI**

«KELISHILDI»

Respublika o‘rta tibbiyot va
farmasevtika xodimlari
malakasini oshirish va ularni
ixtisoslashtirish markazi
hududiy xay‘at raisi

M.L. Xakimova



03

2025 y.

«TASDIQLAYMAN»

Respublika o‘rta tibbiyot va
farmasevtika xodimlari malakasini
oshirish va ularni ixtisoslashtirish
markazi direktori

L. X. Musadjanova



03

2025y.

Bilimlar sohasi: Sog‘liqni saqlash

TIBBIY IJTIMOY EKSPERTIZA HAMSHIRASI

(sikl bo‘yicha malaka oshirish guruhlar uchun)

O‘QUV DASTURI

(144-kredit)

Toshkent – 2025 yil

TUZUVCHILAR:

- I.M. Bazarov Ijtimoiy himoya milliy agentligi Nogironligi bo'lgan shaxslarni reabilitasiya qilish va protezlash milliy markazi shifokori
- S.R. Ismailova Respublika o'rta tibbiyot va farmasevtika xodimlari malakasini oshirish va ularni ixtisoslashtirish markazi o'qituvchisi

TAQRIZCHILAR:

- D.R.Ruziboyev Ijtimoiy himoya milliy agentligi Nogironligi bo'lgan shaxslarni reabilitasiya qilish va protezlash milliy markazi XXB bo'limi mudiri PhD
- Z.Z. Imomova Respublika o'rta tibbiyot va farmasevtika xodimlari malakasini oshirish va ularni ixtisoslashtirish markazi o'quv ishlari bo'yicha direktor o'rinbosari

O'quv dasturi Respublika o'rta tibbiyot va farmasevtika xodimlari malakasini oshirish va ularni ixtisoslashtirish markazining Pedagogik kengashida ko'rib chiqildi va tasdiqlashga tavsiya etildi.

«4» 03.20.25 y.

bayonnoma № 2/1

Pedagogik kengash raisi



L.X.Musadjanova

O'quv dasturi direktorlar kengashida ko'rib chiqildi, muhokama qilindi, tasdiqlashga tavsiya etildi.

«5» 03.20.25 y.

bayonnoma № 2

1. Kirish

Respublikasida o'рта tibbiyot xodimlarini tayyorlash, malakasini oshirish, tibbiyot muassasalarida hamshiralik ishini xalqaro andozalarga mos tarzda tashkil etish borasida zamonaviy tizim yaratilgan. Mazkur ishchi o'quv dasturi O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 6 maydagi "Tibbiyot va farmatsevtika ta'limi va ilm-fani tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ- 4310-son va 2020 yil 7 apreldagi "Tibbiy-sanitariya sohasida kadrlarni tayyorlash va uzluksiz kasbiy rivojlantirishning mutlaqo yangi tizimini joriy etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ 4666-sonli qarorlari, O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligining 2020 yil 15 iyundagi 160-sonli "Tibbiy-sanitariya va farmatsevtika kadrlarining uzluksiz malakasini oshirish tizimini tashkil etish bo'yicha meyoriy hujjatlarni yanada takomillashtirish to'g'risidagi" buyrug'i, O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligining 2024 yil 28 oktabr 333-sonli "O'рта tibbiyot va farmasevtika xodimlarining malakasini oshirish va qayta tayyorlashga qo'yiladigan Davlat talablari" ijrosini ta'minlash maqsadida ishlab chiqilgan.

O'quv dasturda o'quv fanning mazmuni, uni o'zlashtirish shakli va usullari mujassamlashtirilgan. Dastur mazmunida nazariy bilimlarni amaliy ko'nikmalar orqali mustahkamlash va chuqur bilimlarni egallash alohida e'tiborga olingan.

"Tibbiy ijtimoiy ekspertiza hamshirasi" o'quv dasturi yo'nalishining o'quv rejasi asosida tayyorlangan bo'lib, hamshiralarni 144 kredit malaka oshirishlari uchun mo'ljallangan. Dastur fanlar bloklariga ajratilgan bo'lib: kasbiy rivojlanish moduli ma'naviy va siyosiy dunyoqarashlarini kengaytirishga qaratilgan yangiliklar, shuningdek, sog'liqni saqlash tizimidagi islohatlar, tibbiyot sohasining ilm – fani va amaliyotining rivojlanishi tendensiyalari va yutuqlari, yangi texnika va texnologiyalari to'g'risida ma'lumotlar kiritilib, tibbiy talimda uzluksizligi va uzviyligini, fanlar va bo'limlarni ketma-ketligini ta'minlangan holda tinglovchilarni mustaqil ishlashga va fikrlashga qaratilgan o'quv materiallarini qamrab olgan. Dasturda davolash profilaktika muassasalari tibbiy ijtimoiy ekspertiza yo'nalishida hamshiralarni malakaviy tavsifnomasi va lavozim yo'riqnomalariga muvofiq, lozim bo'lgan yangi bilim va ko'nikmalarni (bilishi mumkin, bilishi lozim, bajara olishi kerak va qaysi amaliy ko'nikmalarni o'zlashtirishi lozim) yetarli darajada o'zlashtirishga qaratilgan materiallar taqdim etilgan.

Maqsad:

O'qish natijasida o'рта tibbiyot xodimlarining mavjud kompetensiyalarni takomillashtirish va kasbiy faoliyat uchun zarur yangi bilim va ko'nikmalarni egallash va kasbiy darajasini oshirish. O'рта tibbiyot xodimlari (TIE hamshiralari)ni har tomonlama etuk va mutaxassisliklari bo'yicha etarli bilim va ko'nikmalarga ega bo'lishlariga erishish, ular faoliyatini yanada takomillashtirish, yangi nazariy bilimlarni amaliy ko'nikmalar orqali mustahkamlash va chuqur bilimlarni egallashga qaratilgan.

1.1. Vazifalar:

1. Umumiy malaka oshirish o'quv jarayonini modulli tibbiy ta'lim tamoyili bo'yicha, zamonaviy, innovasion, isbotlangan tibbiyotga asoslangan xalqaro ilmiy-amaliy ma'lumotlarni davlat talablariga mos holda tuzilgan o'quv dasturi bo'yicha tizimli tashkillashtirish va tibbiy davolash muassasalarida ko'rsatiladigan profilaktik, tashxislash va davolash uchun kerakli amaliy ko'nikmalarni mustaqil qo'llashga tayyorgarlikni shakllantirish.
2. Amaliyotda sog'liqni saqlash bo'yicha asosiy qonunlarni, amaldagi direktiv hujjatlarni hamshiralarni ish faoliyatida qo'llay bilishni o'rgatish;
3. Zamonaviy klinik protokollar va standartlar bilan tanishtirib, ular asosida amaliy ko'nikmalarini shakllantirish;
4. Tibbiyot sohasidagi yangiliklar, tibbiy mehnat ekspertizasida davolash profilaktika muassasalari tibbiy mehnat ekspertisasi hamshiralarni malakaviy tavsifnomasi va lavozim yo'riqnomalariga muvofiq, aholini tibbiy ko'riklaridan o'tkazish, birlashtirilgan aholi guruxlari orasida profilaktik tadbirlar majmuasini amalga oshirish.
5. Ko'p uchraydigan asosiy patologik holatlar va ularga olib keluvchi havf omillarini erta aniqlash mahoratini oshirish.

1.3. Ta'lim oluvchilar toifasi (kontingenti):

O'quv dastur bo'yicha davolash profilaktika muassasalari tibbiy mehnat ekspertisasi hamshiralari malakaviy tavsifnomasi va lavozim yo'riqnomalariga muvofiq, ya'ni mutaxassisligini tasdiqlovchi hujjati bo'lgan hamshiralalar uchun mo'ljallangan.

1.4. O'quv dasturni o'zlashtira olish uchun zarur bo'lgan tinglovchi kompetensiyasi:

Hamshiraning huquqiy ma'suliyatlari, bemor huquqlari, roziligi, rad etishi, asosiy hayotiy ko'rsatkichlarni o'rganishdir.

Aholiga tibbiy mehnat ekspertizasini tashkil etishdagi direktiv hujjatlarni o'rganish va me'yoriy hujjatlarni yuritishni bilish.

Tibbiyot psixologiyasi va shaxslararo muloqot ko'nikmalarini o'rganish.

Turli kasalliklar bo'yicha tibbiy mehnat ekspertisasi rejalarini tuzish.

TIE da ish yuritayotgan hamshiralalar bilimini zamon talabiga mos ravishda tashkil etishni.

TIE tizimini isloh qilish jarayonida o'rta tibbiyot xodimlarining o'rnini va ularga bo'lgan talablarni o'rganishni.

Tibbiy-mehnat ekspert komissiyasi (TIE) tizimiga oid bo'lgan me'yoriy hujjatlarni o'rganishni.

TIE tizimini isloh qilish davrlarini o'rganishni;

Mutaxassisligi bo'yicha chuqur va yangilangan to'liq nazariy va amaliy bilimlarga ega bo'lgan, uzluksiz o'z malakasini oshirishga tayyor bo'lgan, o'zgaruvchan sharoitlarga tez moslasha oladigan, etika va deontologiya asoslarni bilish va rioya qilish.

1.5. Dasturning dolzarbligi:

Tibbiy ijtimoiy ekspertiza hamshiralari malakasini oshirish aholiga hozirgi davr talablariga mos ravishda zamonaviy, malakali sifatli tibbiy xizmat ko'rsatishni ta'minlaydi.

Sog'liqni saqlash tizimining butun dunyo bo'yicha rivojlanish tajribasi shuni ko'rsatadiki, hamshiralarni qayta tayyorlashda talablarni ishlab chiqishning vazifasi shakl va mazmunan bir xil ko'rinishda mutaxassislarni ko'p bosqichli qayta tayyorlash tizimini yaratish, bunda tayyorlangan kadrlar sog'liqni saqlashni muassasalarida to'liq mustaqil ishlay olishi va kasbiy faoliyat davomida malakasining oshib borilishi, bemorlarga ish joyi va egallagan lavozimiga mos bo'lgan kerakli malakali yordamni ko'rsata oladigan imkoniyatda bo'lishi lozim.

O'quv dasturining dolzarbligi amaliyotga asoslangan va muammolarga yo'naltirilgan yondoshuv asosida amaliy tibbiy yordamning zamonaviy ehtiyojlaridan kelib chiqib, o'quv materiallari va jarayonlar O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash tizimining va mutaxassislikning o'ziga xos kasbiy ehtiyojlariga qaratilgan. Dastur asosiy va eng yangi adabiyotlardan, chet el olimlarining tarjima qilingan adabiyotlaridan, milliy va jahon standartlari asosida tuzilgan me'yoriy hujjatlardan, shu bilan bir qatorda, tibbiy ijtimoiy ekspertizasi doirasidagi me'yoriy hujjatlar asosida tuzildi.

1.6. Dastur hajmi: 144 kredit (kuniga 6 soat, haftada 36 kredit).

1.7. O'qish shakli:

- kunduzgi - o'qish ishdan ajralgan holda
- on/offline, masofaviy –o'qish ishdan ajralgan/ ajralmagan holda

1.8. Mashg'ulotlarni o'tish tartibi: Mashg'ulotlar O'zbekiston Respublikasi sog'liqni saqlash vazirligining 2020 yil 15 iyundagi "Tibbiy-sanitariya va farmasevtika kadrlarining uzluksiz malakasini oshirish tizimini tashkil etish to'g'risidagi" 160 buyrug'i va markazning ichki tartib-qoidalari asosida rejalashtiriladi va amalga oshiriladi. Mashg'ulotlar 9-00 da boshlanib, 13-50 da tamom bo'ladi. Tushlik - 40 daqika. Kuniga 6 kreditdan, haftasiga 36 kredit, 4 haftada 144 kredit.

1.9. Malaka oshirishdan so'ng: tinglovchilarga tegishli namunadagi sertifikat beriladi.

2. REJALASHTIRILAYOTGAN TA'LIM NATIJALARI

2.1. Rejalashtirilayotgan ta'lim (natijalari)dan so'ng tinglovchi kompetensiyasi: Tinglovchi "Tibbiy ijtimoiy ekspertiza hamshirasi" mutaxassisligi bo'yicha malaka oshirish o'quv dasturini o'zlashtirishi natijasida mutaxassislikni xususiyatlaridan kelib chiqib, malakaviy tavsifnoma bo'yicha yangi umumiy va malakaviy ko'nikmalarini takomillashtiriladi, quyidagi kasbiy kompetensiyalari oshadi:

Umumiy kompetensiyalar: hamkasblar, hamshiralalar va kichik tibbiy xodimlar, bemorlar va qarindoshlar bilan muloqotda tibbiy faoliyatning axloqiy va deontologik jihatlarini amalga oshirishga tayyorligi va amalga oshirishi; intizomiy, ma'muriy, fuqarolik, jinoiy javobgarlikni amalga oshirayotganda tibbiy xatolarning oldini olish bo'yicha o'z faoliyati natijalarini tahlil qilish tayyorligi va

amalgaga oshirishi; so'rov o'tkazish, jismoniy ko'rikdan o'tkazish, ambulator va stasionar bemorlarga tibbiy kartani yozish.

Tibbiy mehnat ekspert komissiyasi (TIE) tizimiga oid bo'lgan me'yoriy hujjatlarni o'rganish.

Bemorlar bilan ishlashda foydalaniladigan tibbiy va texnik jihozlar bilan ishlash, shaxsiy kompyuter texnologiyalari, turli manbalardan ma'lumot olish, global kompyuter tarmoqlarida ma'lumotlar bilan ishlash imkoniyati va istagi; kasbiy muammolarni hal qilishda zamonaviy axborot texnologiyalarining imkoniyatlaridan foydalanish. Tibbiy-ijtimoiy va hamkorlik faoliyatini olib borish, kelishmovchiliklarni hal etish, hamkasabalar, pasientlar va ularning yaqinlari bilan to'g'ri muloqot qilish.

Kasbiy kompetensiyalar: "Tibbiy ijtimoiy ekspertiza hamshirasi" moduli bo'yicha umumiy malaka oshirish dasturida tahsil olish davomida olingan ma'lumotlar asosida TIE tizimiga oid qonunlar, buyruqlar va direktiv hujjatlar bilan ishlash hamda ulardan foydalanish tartibi. Chet ellarda va hamdo'stlik davlatlarida sohaga oid yangiliklar. Zamonaviy diagnostika va davolash usullaridagi yangiliklar. TIE ga oid statistika bo'yicha ko'nikmalar. Bosh, ixtisoslashtirilgan, tumanlararo va tuman(shahar) TIE lariga tegishli direktiv va me'yoriy hujjatlarni. TIE hamshirasining lavozim yo'riqnomasi, TIE hamshiralarining huquqlari, burchlari va vazifalarini. TIE faoliyatida tashkiliy-uslubiy ishlarni tashkillashtirish standartlari, TIE dagi jurnallar va shakllarni rasmiylashtirish, ularni yuritilishi va saqlash tartibi, arxiv hujjatlarini yuritilishi va ularni saqlash; Nogironlar "YaTRD" bilan ishlash, ma'lumotlarni kiritish, yuklash, saqlash va hisobotga ma'lumot olish, nogironlik ko'rik (ishi) dalolatnomalarini rasmiylashtirish, TIE yig'ilishlari bayonnomasi kitobini yuritish va saqlash, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 307-sonli Qaroriga asosan YaTRD (IPR) dasturini rasmiylashtirish va yuritish, TIE ma'lumotnomalari, dalolatnomalarini to'g'ri rasmiylashtirish.

Modulni o'qitish davomida o'zlashtirish natijasida tinglovchi bilishi kerak:

TIE tizimiga oid bo'lgan me'yoriy hujjatlar, buyruqlar. Hujjatlarni rasmiylashtirish tartibi va qoidalarni bilishi hamda amaliy ko'nikmalarga ega bo'lishi lozim. TIE tizimiga oid qonunlar, buyruqlar va direktiv hujjatlar bilan ishlash hamda ulardan foydalanish tartibi. Chet ellarda va hamdo'stlik davlatlarida sohaga oid yangiliklar. Zamonaviy diagnostika va davolash usullaridagi yangiliklar. TIE ga oid statistika bo'yicha ko'nikmalar. Bosh, ixtisoslashtirilgan, tumanlararo va tuman(shahar) TIE lariga tegishli direktiv va me'yoriy hujjatlarni. TIE hamshirasining lavozim yo'riqnomasi, TIE hamshiralarining huquqlari, burchlari va vazifalarini.

Modulni o'qitish davomida o'zlashtirish natijasida tinglovchi bajara olishi kerak:

TIE faoliyatida tashkiliy-uslubiy ishlarni tashkillashtirish standartlari, TIE dagi jurnallar va shakllarni rasmiylashtirish, ularni yuritilishi va saqlash tartibi, arxiv hujjatlarini yuritilishi va ularni saqlashni; Nogironlar "TIE dasturi" bilan ishlash, ma'lumotlarni kiritish, yuklash, saqlash va hisobotga ma'lumot olishni, nogironlik ko'rik (ishi) dalolatnomalarini rasmiylashtirish, TIE yig'ilishlari bayonnomasi kitobini yuritish va saqlashni, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining

307-sonli Qaroriga asosan YaTRD (IPR) dasturini rasmiylashtirish va yuritishni, TIE ma'lumotnomalari, dalolatnomalarini to'g'ri rasmiylashtirishni.

3. "Tibbiy ijtimoiy ekspertiza hamshirasi" kursi o'quv rejasi

№	Modul va mavzular nomi	Kredit	Auditoriya mashg'ulotlari		Seminar	Attestasiya
			Nazariy mashg'ulot	Amaliy mashg'ulot		
1.0	Kasbiy rivojlantirish moduli	32	18	14		
1.1	Modul: O'zbekiston Respublikasining tibbiyot sohasidagi davlat siyosati	4	4	-		
1.2	Modul: Tibbiyotda raqamli texnologiyalar	6	2	4		
1.3	Modul: Infekcion nazorat.	6	4	2		
1.4	Modul: Shaxslar o'rtasidagi muloqat va tibbiy maslahat	6	4	2		
1.5	Modul: Sog'lom turmush tarzi asoslari va to'g'ri ovqatlanish mezonlari. Jismoniy faollik.	10	4	6		
2.0	Mutaxassislik fani	104	44	60		
2.1	Modul: Tibbiy ijtimoiy ekspertiza hamshirasining vazifalari, tizimdagi islohotlar, me'yoriy hujjatlar va ular asosida ish olib borish.	6	4	2		
2.2	Modul: Kasalliklarning oldini olish va aholi salomatligini mustahkamlash, kasalliklarda shoshilinch yordam ko'rsatish.	42	16	26		
2.3	Modul: TIE faoliyatida hamshiralik ishi. Reabilitatsiya markazlariga orderni rasmiylashtirish.	18	8	10		
2.4	Modul: Ko'rik ishini rasmiylashtirish. TIE va YaTRD asosida ishlash va xujjatlarni yuklash.	12	4	8		
2.5	Modul: Kattalar va qariyalar sog'lig'ini saqlashda hamshiralik ishi.	20	10	10		
2.6	Modul: Favqulotda vaziyatlar va shoshilinch holatlarda tez tibbiy yordam ko'rsatish.	6	2	4		
3.0	Tanlov fanlar moduli	4	-		4	
	Attestasiya	4				4

Jami:	144	62	74	4	4
--------------	------------	-----------	-----------	----------	----------

“Tibbiy ijtimoiy ekspertiza hamshirasi” malaka oshirish yo‘nalishi o‘quv modullarining mazmuni

1.1 Modul. O‘zbekiston Respublikasining tibbiyot sohasidagi davlat siyosati.

O‘quv moduliga ajratilgan kredit:	4 kredit
O‘quv moduli mazmuni:	<p>O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoevning Oliy Majlis Qonunchilik palatasining yaqin va istiqbolga mo‘ljallangan Harakatlar dasturi muhokamasiga bag‘ishlangan yig‘ilishidagi nutqida belgilab berilgan Sog‘liqni saqlash tizimidagi dasturlarni samarali va to‘liq amalga oshirishdagi asosiy vazifalar. Yangi O‘zbekiston tibbiyoti-yangicha yondashuvlar asosida transformatsiya qilinayotgan tizim. Yangi O‘zbekistonning Taraqqiyot strategiyasida tibbiyotga doir ustuvor yo‘nalishlarning mazmun-mohiyati.</p> <p>O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining”Ayollar orasida onkologik kasalliklarni nazorat qilishga doir davlat dasturi to‘g‘risi”dagi hamda “Tibbiy va sog‘lomlashtirish turizmini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarorlarining ahamiyati.Sog‘liqni saqlash tizimini raqamlashtirishdagi ustuvor vazifalar. “Aholi salomatligi-2030” milliy strategiyasining ustuvor yo‘nalishlari,vazifalari va asosiy indikatorlari.</p> <p>O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoevning 2020-yil 12-noyabrdagi “Sog‘liqni saqlash tizimini tashkil etishning yangi modeli va davlat tibbiy sug‘urtasi mexanizmlarini Sirdaryo viloyatida joriy etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 4890-sonli shuningdek 2024 yil 5-sentabrdagi “Davlat tibbiy sug‘urtasi mexanizmlarini joriy etishga oid chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi 311-sonli Qarorlarining mazmun-mohiyati.</p> <p>Davlat tibbiy sug‘urtasi-sifatli tibbiy xizmat kafolati.Davlat tibbiy sug‘urtasi mexanizmlarini joriy qilish bilan bog‘liq islohotlar. Davlat tibbiy sug‘urtasining huquqiy asoslari, mexanizmlari va joriy etish bosqichlari haqida.</p> <p>O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida davlat tibbiy</p>

<p>O‘quv yakunida lozim:</p> <p>modul bilishi</p>	<p>sug‘urtasiga oid norma haqida.</p> <ul style="list-style-type: none"> • O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoevning Oliy Majlis Qonunchilik palatasining qo‘shma yig‘ilishidagi ma‘ruzasida belgilab berilgan Sog‘liqni saqlash tizimidagi dasturlarni amalga oshirishdagi asosiy vazifalar to‘g‘risida • Yangi O‘zbekiston tibbiyotini transformatsiya qilish jarayonida amalga oshirilayotgan islohotlar haqida; • Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasida belgilab berilgan tibbiyotga doir 11ta ustuvor maqsadlar; • Tibbiy va sog‘lomlashtirish turizmini yanada rivojlantirish borasida qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida; • Sog‘liqni saqlash tizimini raqamlashtirishdagi ustuvor vazifalar; • “Aholi salomatligi-2030” milliy strategiyasining maqsadlari vazifalari va asosiy indikatorlari haqida. • O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 12-noyabrdagi 4890-sonli, 2024 yil 5-sentabrdagi 311 -sonli qarorlarining mazmun- mohiyati haqida; - Davlat tibbiy sug‘urtasi-sifatli tibbiy xizmat kafolati ekanligi; • Davlat tibbiy sug‘urtasi mexanizmlarini joriy qilish bilan bog‘liq islohotlar; • Davlat tibbiy sug‘urtasining afzalliklari,aholiga kafolatlangan paket doirasida bepul xizmat ko‘rsatishdagi imtiyozlar; • O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida davlat tibbiy sug‘urtasiga oid normalar haqida bilim va ko‘nikmalarga ega bo‘ladilar.
<p>O‘quv moduli yakunida tinglovchi bajara olishi lozim:</p>	<ul style="list-style-type: none"> • Sog‘liqni saqlash tizimida amalga oshirilayotgan islohotlarni targ‘ib qila olishlari va ma‘suliyat bilan yondashishlari; • Sog‘liqni saqlash tizimida qabul qilinayotgan me‘yoriy huquqiy-hujjatlarning mazmun-mohiyati haqida ma‘lumotga ega bo‘lishlari; • Aholi orasida tibbiy madaniyat va tibbiy savodxonlikni targ‘ib qila olishlari; • “Aholi salomatligi -2030” Milliy strategiyasining maqsadi, vazifalari to‘g‘risida to‘liq ma‘lumotga ega bo‘lishlari;

- Elektron sog‘liqni saqlash tizimini amalga oshirishda Axborot texnologiyalaridan foydalana olishlari lozim.
- Aholiga kafolatlangan paket doirasida bepul tibbiy xizmat ko‘rsatish tizimini yo‘lga qo‘yilganligi;
- O‘zbekiston tibbiyoti –“Inson Qadri” uchun degan ezgu tamoyilning ustuvor ekanligi ;
- Davlat tibbiy sug‘urtasi mexanizmlarini joriy etish to‘g‘risidagi normativ-huquqiy hujjatlar haqida ham ma‘lumotlarga ega bulishlari kerak bo‘ladi.

Adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. –T. : O‘zbekiston, 2023.
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoevning 2016 yil 31 oktabrdagi “Aholini dori-darmon vositalari va tibbiyot buyumlari bilan ta’minlashni yanada yaxshilashga doir chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi 2647-sonli qarori;
3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoevning 2017 yil 5- maydagi “O‘zbekiston Respublikasida tibbiy ta’lim tizimini yanada isloh kilish chora-tadbirlari tug‘risida”gi 2956 -sonli qarori.
4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoevning 2017 yil 20-iyundagi “O‘zbekiston Respublikasi aholisiga 2017-2021 yillarda ixtisoslashtirilgan tibbiy yordam ko‘rsatishni yanada rivojlantirish chora –tadbirlari tug‘risida”gi 3071-sonli qarori.
5. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoevning 2020 yil 10-noyabrdagi “Aholining sog‘lom ovqatlanishini ta’minlash bo‘yicha qo‘shimcha chora tadbirlari tug‘risida”gi 4887-sonli qarori.
6. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyovning 2020-yil 12-noyabrdagi “Birlamchi tibbiy-sanitariya yordami muassasalari faoliyatiga mutlaqo yangi mexanizmlarni joriy qilish va sog‘liqni saqlash tizimida olib borilayotgan islohotlar samaradorligini yanada oshirish chora –tadbirlari tug‘risida”gi 6110-sonli farmoni.
7. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoevning 2020-yil 12-noyabrdagi “Tibbiy profilaktika ishlari samaradorligini yanada oshirish orqali jamoat salomatligini ta’minlashga oid qo‘shimcha chora-tadbirlar tug‘risida”gi 4891-sonli qarori.
8. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoevning 2020-yil 12-noyabrdagi “Sog‘liqni saqlash tizimini tashkil etishning yangi modeli va davlat tibbiy sug‘urtasi mexanizmlarini Sirdaryo viloyatida joriy etish chora- tadbirlari to‘g‘risida” gi 4890-sonli qarori.
9. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoevning 2024 yil 5-sentabrdagi “Davlat tibbiy sug‘urtasi mexanizmlarini joriy etishga oid chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi 311-sonli qarori.
10. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoevning 2024 yil 23-sentabrdagi “O‘zbekiston Respublikasida tibbiy va sog‘lomlashtirish turizmini yanada rivojlantirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi 335-sonli qarori.
11. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoevning 2024 yil 22-

noyabrdagi “Ayollar orasida onkologik kasalliklarni nazorat qilish tizimini takomillashtirish chora tadbirlar to‘g‘risida”gi 402-sonli qarori.
12.O‘zbekiston Respublikasi Sog‘liqni saqlash vazirligi tomonidan chiqarilgan buyruq va qarorlar

1.2. Modul: Tibbiyotda raqamli texnologiyalar

O‘quv moduliga ajratilgan kredit:	6 kredit
O‘quv moduli mazmuni:	<p>Tibbiyot sohasida raqamli texnologiyalaridan foydalanishdagi nazariy va amaliy bilimlarni egallash, Bemor ma'lumotlarini boshqarish, tibbiy statistik ma'lumotlarni to‘g‘ri tahlil qilish, tahlil qilingan natijalardan kelib chiqqan holda kasallikning oldini olish yoki davolash yo‘llarini aniqlash, axborot texnologiyalaridan foydalanish borasida asosiy amaliy ko‘nikmalarga ega bo‘lish.</p> <ul style="list-style-type: none"> • Internet tarmog‘ida ishlash, axborot qidirish va ulardan foydalanish, tibbiyot axborot tizimlari xususiyatlari, ma'lumotlar bazasini tashkil etish, mobil tibbiyot ilovalari va axborot xavfsizligi asoslarini, AI asosida diagnostika, chatbotlar va virtual yordamchilardan foydalanishni bilishi kerak. “Tibbiyotda raqamli texnologiyalar” o‘quv modulini o‘zlashtirish jarayonida amalga oshiriladigan masalalar doirasida: <ul style="list-style-type: none"> -tibbiyotda raqamli texnologiyalar tushunchalari va tasavvurlarining umumiyliigi; - axborot tushunchalari va turlari. Tibbiyot masalarini yechishda informatikaning o‘rni; - hozirgi zamonda informatikaning o‘rni va roli, ma'lumotlarni saqlash, qayta ishlash va uzatish.
O‘quv moduli yakunida tinglovchi bilishi lozim:	<ul style="list-style-type: none"> • Kompyuter texnikasi bilan ishlashda texnika xavfsizligi; • Kompyuterga axborot kiritish va axborot olish qoidalarini, kompyuterni tuzilishi to‘g‘risida qisqacha ma'lumotni. • Tibbiyotda zamonaviyaxborot kommunikatsion texnologiyalari bilan ishlash • Axborotlarga ishlov berish, kiritish va chiqarish qurilmalari va ularning tavsifi. • Tibbiyotda aloqa va kommunikatsiya vositalari. • Tibbiyot xodimlari uchun planshetlardan foydalanib, <i>online</i>-registratsiya qilish haqida bilish va ulardan foydalana olishi; • Elektron ma'lumotlar bazasini tashkil etishni. • Sun'iy intellekt va unga asoslangan virtual chatbotlardan foydalanishni. qilish <p>va ulardan foydalana olishi.</p>
O‘quv moduli	<ul style="list-style-type: none"> • elektron tibbiy yozuvlar, bemor ma'lumotlarini kiritish va

<p>yakunida tinglovchi bajara olishi lozim:</p>	<p>tahlil qilish ;</p> <ul style="list-style-type: none"> • ma'lumotlar bazasi yaratishni, ular ustida ishlashni va dasturli ta'minotni • dasturlash asoslari va hisoblash texnikasidan foydalanish; • kompyuter grafik usullarini bilish va foydalana olish; • tibbiy axborotlar almashinuvi va uni izlashda internet tarmog'ida ishlash; • elektron pochta orqali ma'lumotlar olish va ma'lumotlar bazasi bilan ishlash malakalariga ega bo'lishi kerak. • Yangi tibbiyot platformalariga bemor ma'lumotlarini kiritish hamda taxlil qilish; • Sun'iy intellekt dasturlari va virtual chatbotlarda ro'yhatdan o'tish va ma'lumotlar qidirish; • Axborotlar havfsizligi ta'minlash, parollar va kirish huquqlarini boshqarish; AKT sog'liqni saqlash tizimida qo'llashni.
--	--

Adabiyotlar:

1. .A.A.Abduqodirov, A.G.Xayitov «Axborot texnologiyalari», Toshkent "O'qituvchi ta'minoti", Toshkent Mehnat -2022 yil.
- 2.A.Axmedov, N.Taylaqov "Informatika", Toshkent, O'zbekiston -2022y.
- 3.A.Sattorov "Informatika va axborot texnologiyalari" Toshkent, O'qituvchi-2023y
- 4."e-Salomatlik Tizimi: Qo'llanma va Statistika 2024 O'zbekiston Sog'liqni Saqlash Vazirligi (2024).
5. Karimov, S. (2023). "O'zbekistonda telemeditsina: hozirgi holat va istiqbollar", *Tibbiyot Innovatsiyalari Jurnali Toshkent Tibbiyot Akademiyasi*
6. Rahimov, N. et al. (2023). "Analysis of EHR Implementation in Uzbek Hospitals". *Central Asian Journal of Medicine*. ISSN: 2181-2924
7. Tashkent Medical Academy (2024). "Digital Health Readiness Among Uzbek Healthcare Workers". *Research White Paper*.
- 8.Abdullaev, A. (2023). *Raqamli Tibbiyot Asoslari*. Toshkent: Yangi Nashr. ISBN: 978-9943-123-45-6

1.3. Modul: Infekcion nazorat.

<p>O'quv moduliga ajratilgan kredit:</p>	<p style="text-align: center;">6 kredit</p>
<p>O'quv moduli mazmuni:</p>	<p>Infekcion nazorat, maqsad va vazifalari. Shifoxona ichi infeksiyasi, kelib chiqish sabablari, profilaktikasi. Sanitariya epedimiologiya sohasida qo'llaniladigan me'yoriy hujjatlar. Davolash profilaktika muassasalarida shifoxona ichi infeksiyasini</p>

	oldini olish chora tadbirlarini o'tkazishda o'rta tibbiy hodim vazifalari. Karantin va o'ta havfli infeksiyalar haqida tushuncha. Karantin va o'ta havfli infeksiyalar profilaktikasini amalga oshirish chora tadbirlari, himoyalani sh tamoyillari. OIV/OITS haqida umumiy ma'lumot. OIV/OITS tarqalishini oldini olish choralari. Avariya holatlar yuzaga kelganda tibbiy hodim taktikasi. Himoya kiyimlari va ulardan foydalanish tartibi. Kasalliklardan (COVID19) himoyalani sh tamoyillari. Himoya kiyimlari va ulardan foydalanish tartibi.
O'quv moduli yakunida tinglovchi bilishi lozim:	<ul style="list-style-type: none"> • Infeksiya nazorat, maqsad va vazifalarini; • shifoxona ichi infeksiyasi, kelib chiqish sabablarini ; • sanitariya epidemiologiya sohasida qo'llaniladigan me'yoriy hujjatlarni; • davolash profilaktika muassasalarida shifoxona ichi infeksiyasini oldini olish chora tadbirlarini o'tkazishda o'rta tibbiy hodim vazifalarini; • karantin va o'ta havfli infeksiyalar haqida tushunchani; • karantin va o'ta havfli infeksiyalar profilaktikasini amalga oshirish chora tadbirlarini; • karantin va o'ta havfli infeksiyalar himoyalani sh tamoyillarini; • OIV/OITS haqida umumiy ma'lumoni; • OIV/OITS tarqalishini oldini olish choralari.
O'quv moduli yakunida tinglovchi bajara olishi lozim:	<ul style="list-style-type: none"> • shifoxona ichi infeksiyasini oldini olishda San Q va M ga rioya qilishni; • joriy va mukammal tozalash o'tkazishni; • qo'llarga gigiyenik ishlov berishni; • muolajalar vaqtida avariya holatlari yuzaga kelishini oldini olishni; • avariya holatlari yuzaga kelganda tegishli chora- chadbirlar o'tkazishni; • himoya kiyimlarini kiyish va yechishni.
Adabiyotlar: <ol style="list-style-type: none"> 1. San QvaM № 0342/17 - 10 yanvar 2017 y. 2. “Международные медико-санитарные правила” (2005) второе издание ВОЗ. 3. H.B.Saparov “ O'ta xavfli yuqumli kasalliklar” Toshkent- 2014. 4. “ВИЧ – инфекция”. Pod redaksiyey AN Ruz Daminova. T. ATashkent- 2010 . 	

1.4 Modul. Shaxslar o'rtasidagi muloqat va tibbiy maslahat

O'quv moduliga ajratilgan kredit:	6 kredit
O'quv moduli	Jamiyat va bemorning salomatligi yo'lida halol

<p>mazmuni:</p>	<p>mehnat qilish, har qanday sharoitda ham tibbiy yordam ko‘rsatish. Bemorga diqqat e‘tibor va g‘amxo‘rlik bilan munosabatda bo‘lish va o‘zining barcha xatti-harakatlarida yuksak insoniy qoidalarga rioya qilish. Jamoada, individual va turli guruhlarda shaxslararo muloqot madaniyati. Kasbning oliyjanob an‘analarini saqlash. Zamonaviy tibbiyot amaliyotida sezilarli e‘tibor tibbiyot xodimlarining kasbiy ko‘nikmalariga, bemorlar bilan ularning gender va madaniy xususiyatlarini hisobga olgan holda muloqot qilish qobiliyatiga qaratilmoqda. Genderning salomatlikka ta‘siri. Genderga sezgir tibbiy maslahat va aloqa to‘g‘risida tushuncha. Ichki madaniyat qoidalari, intizomga rioya qilish. Jamoat mulki tushunchasi va unga ehtiyotkorlik bilan munosabatda bo‘lish. Hamjihatlik va kollegiallik tuyg‘ulariga rioya qilish. Neytral va xavfsiz muhitni yaratish. Salbiy munosabat va fikrlardan qochish. Tibbiy maslahatni hurmat va e‘tibor bilan boshlash. Faol tinglash va empatiya Bemorning ehtiyojlarini baholash. Shaxsiy chegaralarni hurmat qilish. Tushunarli tildan foydalanish. Tibbiyot xodimining bemor bilan muloqot qilish qobiliyati. Muloqot ko‘nikmalarining turlari va ularning bir-biri bilan o‘zaro bog‘liqligi. Tibbiy maslahatning asosiy tuzilishi va ko‘nikmalarning o‘zaro bog‘liqligi. Tibbiy maslahatni tartiblashtirish. Noverbal tildan foydalanish. O‘zaro tushunishga erishish: bemorning holatini inobatga olish. Samarali muloqotning xususiyatlari</p>
<p>O‘quv moduli yakunida tinglovchi bilishi lozim:</p>	<ul style="list-style-type: none"> • Insoniylik tamoyillariga, kasbiy standartlarga va tibbiyot ilmining zamonaviy talablariga javob beradigan sifatli tibbiy yordam ko‘rsatish tamoyillarini; • klinik amaliyotda dalillarga asoslangan parvarish tamoyillarini; • tibbiyot xodimining asosiy huquq, burch va majburiyatlarini; • bemorning ehtiyojlariga nisbatan sabrli va xushmuomalali bo‘lishi, bemor bilan o‘zaro sokin va ishonchli munosabat o‘rnatishni; • bemorga diqqat e‘tibor va g‘amxo‘rlik bilan munosabatda bo‘lish va o‘zining barcha xatti-harakatlarida yuksak insoniy qoidalarga rioya qilishni; • jamoada, individual va turli guruhlarda shaxslararo muloqot madaniyatini; • ichki madaniyat qoidalari, intizomga rioya qilishni. • neytral va xavfsiz muhitni yaratishni.

	<ul style="list-style-type: none"> • salbiy munosabat va fikrlardan qochishni. • tibbiy maslahatni hurmat va e'tibor bilan boshlashni • samarali muloqotning xususiyatlarini • verbal va noverbal ko'nikmalarni
O'quv moduli yakunida tinglovchi bajara olishi lozim:	<ul style="list-style-type: none"> • Kasbning oliyjanob an'analarini saqlashni • bemorlar va ularga tegishli ma'lumotlarning maxfiyligiga hurmat bilan munosabatda bo'lish ko'nikmalarini; • bemorning shaxsiy hududiga kirishni minimallashtiradigan hamshiralik amaliyoti standartlariga amal qilishni; • bemor, shaxslararo o'zaro muloqot qilish ko'nikmalarini; • bemorning ehtiyojlarini hisobga olib, o'zaro sokin va ishonchli munosabat o'rnatish usullarini. • bemorning ehtiyojlarini baholashni. • shaxsiy chegaralarni hurmat qilishni. • tushunarli tildan foydalanishni
<p>Adabiyotlar:</p> <p>1.Yunusjonova. Z.S. Mirzaeva S.A."Psixologik parvarish" Toshkent. 2014 y.</p> <p>2. Shukurov. H.I. Qanoatov. S.Q. "Jamoada hamshiralik ishi" Toshkent. 2013 y.</p> <p>3.Zokirova. K.O'.To'xtamatova. D.O'. Mirzaeva. S.A "Hamshiralik ishi asoslari". 2013 y.</p> <p>4.Tolkacheva. O.V. Zinkovskaya. I.V."Оснoвы сестриксого дела" Toshkent. 2012 g.</p> <p>Elektron ta'lim resurslari</p> <p>http://www.edu.uz</p> <p>http://www.pedagog.uz</p> <p>www.tma.uz,</p> <p>www.lex.uz</p>	

1.5. Modul: Sog'lom turmush tarzini shakllantirish mezonlari. Jismoniy faollik

O'quv moduliga ajratilgan kredit:	10 kredit
O'quv moduli mazmuni:	Sog'lom turmush tarzini tashkil etish asoslari. Sog'lom turmush tarzini shakllantirishda maqsadli guruhlar bilan ishlash. Atrof muhit va ekologik omillarning salomatlikka ta'siri, to'g'ri ovqatlanish prinsiplari, kun tartibini to'g'ri tashkil etish, jismoniy faollik va chiniqishning salomatlikdagi ahamiyati, zararli odatlarning organizmga ta'siri, tibbiy ko'riklarni tashkil etish va aholini jalb etish.
O'quv moduli yakunida tinglovchi bilishi	<ul style="list-style-type: none"> • Salomatlik tushunchasi, salomatlik darajasi ko'rsatkichlarini; • sog'lom turmush tarzini shakllantirish tamoyillarini; • salomatlikka ta'sir etuvchi omillar: irsiy, ekologik

lozim:	<p>tibbiy va hayot tarzi va salomatlik mexanizmlarini bilishi, tahlil qila olishni;</p> <ul style="list-style-type: none"> • atrof muhit va ekologik omillarning salomatlikka ta'sirini; • salomatlikni mustahkamlashga qaratilgan standart va algoritmlarni; • to'g'ri ovqatlanish prinsiplarini; • kun tartibini to'g'ri tashkil etishni; • jismoniy faollik va chiniqishning salomatlikka ta'sirini; • zararli odatlarning organizmga ta'sirini; • tibbiy ko'riklarni tashkil etish va aholini jalb etishni; • sog'lom turmush tarzini maqsadli guruhlar o'rtasida shakllantirish va targ'ib etishni;
O'quv moduli yakunida tinglovchi bajara olishi lozim:	<ul style="list-style-type: none"> • Aholining turli guruhlarida (yoshiga, mehnat turiga, jinsiga qarab) psixoemotsional holatni aniqlashni; • sog'lom turmush tarzini qo'llab quvvatlashda maqsadli guruhlarini shakllantirish va ular o'rtasida suhbatlar olib borishni; • individual salomatlik va uni asrash yo'llarini; • jismoniy faollik, to'g'ri ovqatlanish prinsiplari, zararli odatlarning salomatlikka ta'siri mavzularida aholi o'rtasida tadbirlar tashkil etishni; • maqsadli guruhlar o'rtasida targ'ibot ishlarini olib borishni; • inson salomatligini saqlash va tiklashda jismoniy tarbiya mashqlari kompleksini; • jismoniy mashqlarni har xil yoshdagi sog'lom odamlarda va bemorlarda qo'llash uslublarini; • Skandinaviya yurish usullarini.
Adabiyotlar: <ol style="list-style-type: none"> 1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 10 noyabrdagi "Aholining sog'lom ovqatlanishini ta'minlash bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ 4887-sonli qarori. 2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 18 dekabrda "Yuqumli bo'lmagan kasalliklarning profilaktikasini, sog'lom turmush tarzini qo'llab – quvvatlash va aholining jismoniy faolligi darajasini oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ 4063-sonli qarori. 3. Irgashev.Sh.B. Formirovanie zdorovogo obraza jizni i sanitarno prosvetitel'naya rabota. Jurnal "Organizatsiya i upravlenie zdravooxraneniem" № 12.2020 g. 4. Irgashev. Sh.B. "OIV/OITS muammolarivaprofilaktikasi" Tashkent 2008 . 5. Irgashev. Sh.B. Tursunxodjaeva. L.A. Pervichnaya profilaktika 	

narkozavisimosti sredi uchashxsysya obrazovatel'nyx shkol, Uchebnoe – metodicheskoe posobie dlya uchiteley, Ministerstvo zdravooxraneniya Respublike Uzbekistan. Tashkent 2011 g.

6. Natsionalnaya programma po borbe protiv tabaka v Respublike Uzbekistan na 2008 – 2012 gg. Tashkent 2007 g.

2.1.Modul. Tibbiy ijtimoiy ekspertiza hamshirasining vazifalari, tizimdagi islohotlar, me'yoriy hujjatlar va ular asosida ish olib borish.

Tibbiy mehnat ekspertizasi xamshirasining vazifalari, tizimdagi islohotlar. TIE tizimiga oid bo'lgan me'yoriy hujjatlar, buyruqlar. Hujjatlarni rasmiylashtirish tartibi va qoidalari. TIE tizimiga oid qonunlar, buyruqlar va direktiv hujjatlar bilan ishlash hamda ulardan foydalanish tartibi. Chet el va hamdo'stlik davlatlarida sohaga oid yangiliklar. Kasalliklarni zamonaviy diagnostika va davolash usullari. TIE ga oid statistika bo'yicha ko'nikmalar. Bosh, ixtisoslashtirilgan, tumanlararo va tuman(shahar) TIElariga tegishli me'yoriy hujjatlar. TIE hamshirasining lavozimlik yo'riqnomasi, huquqlari, burchlari va vazifalari. Nogironlar "TIE dasturi" bilan ishlash, ma'lumotlarni kiritish, yuklash, saqlash va hisobotga ma'lumot olish, nogironlik ko'rik (ishi) dalolatnomalarini rasmiylashtirish. TIE yig'ilishlari bayonnomasi kitobini yuritish va saqlash. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 307-sonli Qaroriga asosan YaTRD (IPR) dasturini rasmiylashtirish va yuritish. TIE ma'lumotnomalari, dalolatnomalarini to'g'ri rasmiylashtirish.

2.2. Modul. Kasalliklarning oldini olish va aholi salomatligini mustahkamlash, kasalliklarda shoshilinch yordam ko'rsatish.

Xonadonlarni umumiy tozaligini ahamiyati. Ko'zni tekshirish, ko'z muolajalarini bajarish. Quloqni tekshirish. Surunkali nafas olish kasalliklari bilan og'rigan bemorlarni parvarishlash. Bronxial astmani keltirib chiqaruvchi xavfli omillar, asosiy belgilari va hamshira parvarishi. Bronxial astmada hamshira parvarishi. Ko'krak qafasining rentgenogrammaga tayyorlash. Cho'ntak ingalyatoridan foydalanish. Sil kasalligini belgilarini aniqlash. Zotiljam kasalligi va unda hamshira parvarishi. Gipertermiyada yordam ko'rsatish. O'pkaning surunkali obstruktiv kasalliklarini belgilari va hamshira parvarishi. Gipertoniyani keltirib chiqarishda havfli omillarni bartaraf etishda hamshiraning o'rni. Yurak ishemik kasalligi va yurak yetishmovchiligida hamshira parvarishi. Qon bosimni o'lchash va monitoringini olib borish. Kardioreabilitasiya. Oshqozon va 12 barmoqli ichak yara kasalligi, o'tkir va surunkali gepatitlarda hamshira parvarishi. Buyrak va siydik yo'li kasalligida hamshira parvarishi. Qandli diabet bilan kasallangan bemorlarni parvarish qilish. Giper va gipoglikemik komada tez tibbiy yordam. Ergoterapiya. Bemorlarni siydik-tanosil a'zolarini rentgenologik tekshirishga tayyorlash. Buyrak sanchig'ida shoshilinch yordam ko'rsatish. Tug'ma nuqsonlari va irsiy kasalliklari bo'lgan bolalarning hujjatlarini rasmiylashtirishda TIE hamshirasining vazifasi.

2.3. Modul. TIE faoliyatida hamshiralik ishi. Reabilitatsiya markazlariga orderni rasmiylashtirish.

O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligi tizimidan chiqarilgan TIE tizimga oid bo'yruqlarini bilishi, TIE ko'rigini madaniy tashkil etilishi, ularni ro'yxatga olish, TIE ko'rigi tugagandan so'ng bayonnoma va nogironlik ma'lumotnomalarini ro'yxatga olish, nogironlik ma'lumotnomalarini Pensiya jamg'armasiga etkazish tartibi va muddatlari, reabilitatsiya potentsiali bor nogironlarni ro'yxatini yuritib, ularni RM ga chaqirtirilishi, yo'llanishini ta'minlash, TIE xodimlari tomonidan ko'rikdan o'tgan nogironlarga berilgan ko'rik ishidagi tavsiyalarni alohida ro'yxatga olish, TIE ekspertlari tomonidan ko'rik dalolatnomasining barcha bandlari to'ldirish, ishga tavsiya qilingan nogironlar ro'yxatini xar oyda tuman(shahar) bandlikga ko'maklashish va aholini ijtimoiy muhofaza qilish markazlariga topshirish, TIE ekspertlari bilan birgalikda hisobotlarni tayyorlash.

2.4. Modul. Ko'rik ishini rasmiylashtirish. TIE va YaTRD asosida ishlash va xujjatlarni yuklash.

Komp'yuter programmalari va TIE dasturida ishlash. TIE hamshirasining lavozim yo'riqnomasi. TIE faoliyatida tashkiliy-uslubiy ishlarni tashkillashtirish standartlari, TIE dagi jurnallar va shakllarni rasmiylashtirish, ularni yuritilishi va saqlash tartibi. Arxiv hujjatlarini yuritilishi va ularni saqlash. TIE faoliyatida tashkiliy-uslubiy ishlarni tashkillashtirish standartlari. TIE dasturiga ma'lumotlarni kiritish va xujjatlardan skaner orqali nusxa olib dasturga yuklash.

2.5. Modul. Kattalar va qariyalar sog'lig'ini saqlashda hamshiralik ishi.

Sog'lom turmush tarzini targ'ib qilish, Katta yoshdagilarni tibbiy ko'rigini tashkil etish; Oilasida bo'ladigan muammolarni echishda tibbiy psixologiyani o'rni; Kattalarda hamshiralik parvarishining hususiyatlari; Qariyalar sog'lig'ining o'zgarishidagi qiyinchiliklarni tushunish va o'zgarishlar darajasiga mos ravishda yordam berish, ijtimoiy yordam tizimidan foydalanishda qariya va uning oilasiga yordamni, keksa bemorlarda hamshiralik jarayonini yuritish, keksalik davrida uchraydigan kasalliklarga chalingan bemorlarga yordam, tekshiruvdan o'tayotgan keksa bemorga yordam, demensiya bilan og'rigan keksa bemorga yordamni; Tekshirish va davolashning individual dasturini tuzish, vaziyatlar to'satdan o'zgargan taqdirda fikr bildirish va chora qabul qilish, qariyalarga tez tibbiy yordam ko'rsatish.

2.6. Modul. Favqulotda holatlarda tez tibbiy yordam ko'rsatish.

Favqulotda vaziyatlar haqida asosiy tushuncha. Favqulotda vaziyatlar, ularning sabablari, turlari. Tibbiy saralash va triaj asoslari. Shoshilinch tibbiy yordam ko'rsatish bosqichlari va qoidalari. Ommaviy talofatlar holatida evakuatsiya va birinchi yordam ko'rsatish tamoyillari. Qon ketishni to'xtatish usullari. Yengil va og'ir kuyishlarda tibbiy yordam ko'rsatish. Elektr jarohatlari, ochiq va yopiq jarohatlar, sinishlar, uzoq muddat ezilishda shoshilinch tibbiy yordam ko'rsatish. Hushdan ketish, kollaps, shok, koma haqida umumiy ma'lumot. Hushdan ketish, kollaps holatlarida bemorga yordam ko'rsatish. Shok holatlarida yordam ko'rsatish algoritmi (gipovolemik, anafilaktik, travmatik). Komatoz holatda bemorni baholash va dastlabki yordam ko'rsatish.

Terminal holat bosqichlari. Klinik va biologik o'lim belgilari. CPR – yurak-o'pka reanimatsiyasining nazariy asoslari. Kattalar va bolalarda yurak massaji va sun'iy nafas berishni o'tkazish algoritmi.

4. DASTURNI AMALGA OSHIRISHNING TASHKILY-PEDAGOGIK TA'MINOTI

4.1. O'quv bazalari: Respublika o'rta tibbiyot va farmasevtika xodimlari malakasini oshirish va ularni ixtisoslashtirish markazi Shifokorlar ko'chasi, 14 uy, davolash profilaktika muassasalari qoshidagi o'quv bazalari.

Amaliyot bazasi: davolash profilaktika muassasalari qoshidagi o'quv bazalari.

4.2. Mashg'ulotlarni o'tkazish uchun zarur jixozlar ro'yxati:

Modul bo'yicha dars olib borish uchun nazariy, amaliy va seminar darslar o'tiladigan o'quv auditoriyalari

Multimediali jamlanma: elektron doska, slaydlar to'plami bo'lgan ko'rinishli ma'ruzalar, SD diskda ko'rgazma materiallar, videofilmlar.

Klinik amaliyko'nikmalarnimustaxkamlash trening o'quvxonasimulyaj, fantom v.b jihozlar.

Mavzular bo'yicha turli jadvallar, tasviriy ko'rgazma va qo'llanmalar,

4.3. ADABIYOTLAR RO'YXATI

4.3.1. Qonunchilik va me'yoriy-xuquqiy xujjatlar:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmon va qarorlari.

2. O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash Vazirligining buyruq va me'yoriy hujjatlari.

Tavsiya etilgan adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Fuqarolarning pensiya ta'minoti tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 2009 yil 30 dekabrda PF-4161-son Farmoni;

2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasi Mehnat va aholini ijtimoiy muhofaza qilish vazirligi tuzilmasini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" 2009 yil 30 dekabrda PQ-1251-son qarori, (Bandlikka ko'maklashish va aholini ijtimoiy muhofaza qilish markazlarini xonalar (bino)lari bo'yicha ma'lumotga ega bo'lish;

3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi byudjetdan tasheari Pensiya jamg'armasining tashkiliy tuzilmasini shakllantirish chora-tadbirlari to'g'risida" 2009 yil 30 dekabrda PQ-1252-sonli Qarori;

4. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Tibbiy-mehnat ekspertiza xizmati faoliyatini tashkil etishni takomillashtirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" 2010 yil 2 sentyabrda 193-son qarori;

5. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2011 yil 1 iyuldagi 195-son qarori “Tibbiy-menat ekspert komissiyalari tomonidan fuqarolarni tibbiy ko‘rikdan o‘tkazish tartibini yanada takomillashtirishga, nogironlikni va kasbiy mehnatga layoqat yo‘qotilishi darajasini aniqlashga yo‘naltirilgan normativ-huquqiy hujjatlarni tasdiqlash to‘g‘risida”
6. O‘zbekiston Respublikasi Mehnat va aholini ijtimoiy muhofaza qilish vazirligining 10.02.2012y. 5-son hamda O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligining 10.02.2012y. 19-son Qarori "O‘zbekiston Respublikasining muhtoj fuqarolarini protez-ortopediya mahsulotlari va rehabilitasiya texnik vositalari bilan ta'minlash tartibi to‘g‘risida yo‘riqnomani tasdiqlash haqida"gi Qarorga o‘zgartirishlar va qo‘shimcha kiritish to‘g‘risida.
7. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 23.12.2010 yildagi 307-sonli “Nogironlarni tibbiy-ijtimoiy va kasbiy rehabilitasiya qilish samaradorligini yanada oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Qarori;
8. T.Yu. Umarova ” Hamshiralik ishi” Toshkent-2005y
9. V.Ye.Avakov O.V.Churilova A.M.Sharipov “Rukovodstvo po okazaniyu pervoy neotlojnoy dovrachebnoy pomoshi.” 2010g.

4.3.2. Elektron ta'lim resurslari:

ROS-MEDIC <http://ros-medic.ru>

www.uza.uz

www.lex.uz

<http://www.ziyonet.uz>

<http://www.edu.uz>

<http://www.pedagog.uz>

5.YaKUNIY ATTESTATSIYA

5.1.Yakuniy attestatsiyaga qo‘yiladigan talablar,o‘tkazish shakli va baholash mezonlari.

Yakuniy attestatsiya O‘zbekiston Respublikasi Sog‘liqni saqlash Vazirligining 2020yil 15 iyundagi 160-sonli buyrug‘i 3-ilovasidagi «Tibbiy-sanitariya va farmasevtika kadrlarini qayta tayyorlash va malakasini oshirish ta’lim muassasalarida tinglovchilarning kasbiy bilim va ko‘nikmalarini baholash to‘g‘risidagi Nizom» ga asosan o‘tkaziladi.